

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**

<i>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'. Til va marketing .....</i>	166
<i>Odilova D.O., Shodmonov R.G'. East asia counturies languages and cultures .</i>	171
<i>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'. Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar, til o'rganishning foydali tomonlari.....</i>	176
<i>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'. Onlayn til o'rganish platformalari .....</i>	180
<i>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'. Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash .....</i>	184
<i>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'. Dunyo tillarining soni va turkiy til .....</i>	189

## II SHUBA

<i>Абдалов А.Б. Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны .....</i>	193
<i>Saidova I.X. Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.) .....</i>	199
<i>Sunnatullayeva M.G'. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....</i>	205
<i>Kenjayev N. Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....</i>	208
<i>Атаджанова А.У. Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....</i>	211
<i>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni.....</i>	213
<i>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'. Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.....</i>	218
<i>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'. Bolalardagi senzetiv davr va nutq rivojlanishi .....</i>	222
<i>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'. Maxsus pedagogika va uning bo'limlari .....</i>	226
<i>Alieva F., Shodmonov R.G'. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar .....</i>	230
<i>Qurbonova K.A., Shodmonov R.G'. Bolalarda musiqani rivojlantirish.....</i>	234
<i>Komilova R.D., Shodmonov R.G'. Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar .....</i>	237
<i>Turlibekova O., Shodmonov R.G'. Aqli zaif tushunchasi .....</i>	242
<i>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....</i>	247
<i>Zayniddinova M.Sh., Shodmonov R.G'. Daun sindromli bolalar .....</i>	251

# KITOBXONLIK VA UNING MOHIYATINI ANGLASH

**Junaydullaxonova Moxinisoxon Alixon qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>*Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>*Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya.** Ushbu tezis kitobxonlik va uning mohiyatini anglash, insonlarda kitobxonlik samaradorligini oshirish, kitobxonlikka yaratib berilayotgan bir qator imkoniyatlar haqida malumotlarga ega bo'lamiz. Kitobxonlik asli nima u qanday qilib amalga oshiriladi, davlatlar aro kitobxonlik strategiyasi. Kitobxonlikni yoshlar va hamda kattalar orasida tadbiiq etish, kitobxonlik samaradorligini oshirish haqida malumotlarga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Kitobxonlik, yaratib berilayotgan imkoniyatlar, iqtiboslar, tarix zar varoqlarida, ongni rivojlanishi.

**Kirish:** Har bir insonning o'z extiyojidan kelib chiqqan holda kitobxonlik darajasi belgilanadi. Har qanday davlat yokida millat bo'lsin uning kuch-qudrati fuqarolarinig ongliligi bilan belgilanadi va bunday holda albatta kitobxonlik va albatta kitobxon o'qigan kitobini mohiyatini anglashga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda turli atamalar jumladan "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati", "Mutolaa madaniyati" kabi iboralar ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Xalqimizda kitobni o'qish va undan tarbiya olish, hunar egallashga qaratilgan bir qator hikmatli gaplar va maqollar bor. Jumladan "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilm marifatda", "Hunarli kishi hor bo'lmas". Yosh avlodning hayotida kitobni alohida o'rni bo'lishligi uning mohiyatini anglashligi ularning qalbida Vatanga muhabbat, qadriyatlarga hurmat, yaxshilikka ezgulikka undaydi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabr kuni qabul qiningan PQ-3271 "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutlaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi haqidagi" qaror ijrosi to'g'risidan shaxar va qishloqlarda kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda. Darhaqiqat yoshligidan kitob o'qib uning mohiyatini anglab o'sgan bola kitob o'qimay o'sgan bolaning fikrlashlari dunyoga o'zgacha nazar bilan qarashligi sezilarli darajada farqlash mumkin.

Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbayi hisoblanadi. Buyuk mutafakkir, faylasuf, falakiyot, tibbiyot sohasining bilimdoni hamda tilshunos olim, barcha davrlarda o'tgan olim-u ulamolar ichida yetakchi o'rinni egallagan Abu Ali ibn Sino og'ir betob bo'lgan Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolagach, evaziga oltinu kumushlar emas, balki saroy kutubxonasidan foydalanishni avfzal

ko'rgani kitobning inson hayotida qay darajada o'rni kata ekanligini isboti deya qarasaq mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda buyuk rus shoiri A.S.Pushkinning hayotining so'ngilazalarini keltirib o'tishni joiz deb bildik. A.S.Pushkin duelda yaralanib, vafot etar chog'ida unga do'stlaringiz bilan vidolashing deyishganda, u xonaning burchagidagi kitob javoniga qarab: "Xayr, mening do'stlarim" deya jon bergani tarix zar varoqlaridan joy olgani takidlanadi. Yuqorida takidlayotganimizdek kitob o'qish bilan o'qishning juda kata farqi bor. Inson kitob o'qishi mumkin ammo uni anglamasligi to'g'ri tushunib yetmasligi mumkin. Ba'zi insonlar o'zlarining majburliklaridan kitob mutolaa qiladilar. Misol keltiradigan bo'lsak maktab yoshidagi bola o'qtuvchi bergan vazifani topshirish uchun o'qiydi natijada bola vazifani o'qtuvchiga topshirib bo'lib o'qiganlarini unutadi. Unutilishiga sabab o'qiganda nima o'qiganiga e'tiborsizlik qilgani oqibatida o'qiganlari vaqtinchalik xotirada saqlanadi va bu ko'p o'tmay unitiladi. Kitob mohiyatini anglash uning asl negizida nimalar borligi kitobxonning o'qiyotgan kitobini muhabbat, qiziqish va izlnish bilan yetiladigan jabha hisoblanadi.

## People Still Prefer Holding Dusty Old Books

Percentage of U.S. Internet users reading hard copy and electronic books



THE WALL STREET JOURNAL

n=2,234; Source: Harris Interactive     **statista** 

### 1-rasm. Insonlar tomonidan qanday turdagi kitoblar ko'proq avzal topiladi<sup>33</sup>

Yusuf Tovasliyning "Hikmatlar xazinasi kitobidan iqtibos keltirib o'tishni lozim topdik: **"Jamiyat a'zolari yuksalmasa, jamiyat ham yuksalmaydi. Jamiyat a'zolari yuksalishi uchun ularning aqlari yuksalishi lozim. Aql esa faqat kitob mutolaasi bilangina yuksaladi."** Jamiyatning rivoji a'zolari rivojlanishiga qarab rivojlanadi, jamiyat azolari rivojlanishi uchun esa ularning aqlari yuksalishi darkor. Ba bu shuni anglatadiki AQL faqatgina kitob mutolasi va uni anglash orqaligina rivojlanishi ta'kidlanmoqda. Kitob mutolaasi yani "Mutolaa" so'zi arab tilida

<sup>33</sup> <https://i.pinimg.com/originals/45/91/77/4591777fc3dc0421d95f6b080c375b09.jpg>

“o’qish” degan manoni bildirsada bugungi kunda u kitob o’qishdankengroq ma’oni anglaayotganini takidlanmoqda.

A. Umarov: “Mutolaa” madaniyati ijtimoiy guruhlar, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni, tarkibiy tizimlarda yuz beradigan o’zgarishlar resursini ifodalovchi, me’yorlar va boshqa harakatlar hisoblanadi. Ayni vaqtda “mutolaa” madaniyatini ta’lim tizimlari vositasida maxsus shakillantiradigan inson hayoti davomida turli manbaalar jumldan kitoblar ilmiy, diniy, badiiy; ommaviy axborot vositalari televideniya, radio, jurnallar; zamonaviy axborot texnologiyalari internet, electron jurnal va gazetalar; shu bilan birgalikda bevosita muloqotga kiruvchi shaxslar oila a’zolari, o’qtuchi va murabbiylar orqali turli yo’nalishdagi umumiy malumotlardan farqlash lozim bo’ladi.

Professor E.I. Yo’ldoshev “O’qish madaniyati”ni shunday tadbiiq qiladi: mutolaa madaiyati – kitobga qiziqish, sevis, adabiyot bilan tanishish, kitobdan to’laonli foydalanish, bilimlarga ega bo’lishga ko’mak beruvchi ko’nikma va malakaga ega bo’lishni taqazo etadi.”



<https://basmo.app/reading-statistics/>

Kitoblar olami – sayyoradagi eng himoyalangan olam desak mubolag’a qilmagan bo’lamiz. Bu olam insonni tashqi dunyodagi turli ko’ngilsizliklar va buzg’unchi omillardansaqlaydi shu sababdan ham zamonaviy tilda kitoblar olamini konservative olam deya ataymiz. Har ikki kitobxondan biri kitob borasida tanqidlarga uchrashi tayin: jumladan eng kamida shunday fikrlarga uchrashlari tayin; kerakli adabiyotni o’qimayapsan, qiziqarli bo’lmagan kitobni yarmida tashlab ketding, axir uni oxirigacha o’qishing kerak edi-ku, shu ham kitobmi! Mutolaaga osonroq yondashgan holda, ko’proq malumot eslab qolish va albatta undan zavq

olishda yordam beradigan qarashlar haqida bayon qilinadi. Kitobni mohiyatini anglash uchun uni yakunlash shart hisoblanmaydi balki kitob qiziqarli bo'lib chiqmagan va u uchun qimmatli vaqtni sarf etish ma'no kasb etmaydi. Uning o'rniga boshqa qiziqroq kitob mutolaasini boshlagan ham vaqtni ham mutolani maroqli o'tkazishga turtki bo'ladi.

Ikkinchi sabab non-fikshen janridagi ilmiy-ommabop kitoblarga tegishli. Ba'zida kitobning muayyan jihatlariga qiziqish bolishiga qaramasdan, ichingizdagi qandaydir kuch qandaydir bir ovoz barini o'qishga majburlaydi. Unga quloq osib vaqtni o'tkazishlik inson ongiga ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi va eng achinarlisi o'zi yoqtirmagan mashg'ulot bilan bahosi yo'q vaqtni sovurgan bo'ladi. Kitob mohiyatini anglashdagi asosiy ikkinchi oltin qoida "malumotni o'zlashtirish". Bugungi kunda zamonaviy inson kuniga besh yuz mingga yaqin so'zdan foydalanishini tasavvur etish mushkul sanaladi. Biroq buyerda gap kitoblar, internetdagi ma'lumotlar va turli jurnallar haqida. Bugungi kunda axborot dunyosidagi eng katta muammo ma'lumotlarning kichik qismini o'zlashtiramiz-uz ammo qolgan o'qigan kitoblarimizni bir necha kun ichida untib hayolimizdan chiqarib yuboramiz.

Keying bosqich bu ma'lumotni o'zlashtirishni o'rganish. O'rganilgan faktlar malumotlar haqida o'ylash va shular haqida Do'stlarimiz bilan muhokama qilish malumotlarni o'zlashtirishda va yodda qolishida kata ahamiyat kasb etadi. O'z kundalik qaydnomamizga yoki bo'lmasa qo'limizdagi gadjetlardan foydalangan holda o'rganilgan yangi malumotlarni qayd qilish va uning ustida ko'proq vaqt sarf etish ma'lumotni xotirada uzoq vaqtga o'rin topish ehtimolini kuchaytiradi va bu ham o'z navbztida bizga har tomonlama yengillik va barqaror takomillashib borishimizga Narvon vazifasini o'taydi. Parchalarni qaytadan o'qib chiqish non-fikshen kitoblarga qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar biror ma'lumotni yodda qoldirishni istalsa, kitobni o'qib bo'lgach, ertasi kuni eng muhim joylarini qaytadan o'qish tavsiya etiladi. Ma'lumotlarni qayta o'rganib chiqish bilan birga bu o'qilganlarni yaxshiroq yodda saqlab qolishga imkon yaratadi. Mutolaaga instrument kabi munosabatda bo'lish mutolaa ma'lumotni o'zlashtirishning boshqa usullari bo'lgani kabi bizga bilim va ko'nikma olishda muhim ro'l o'ynadi. Bu shuni anglatadiki, mutolaa jarayoniga xotirjamlik bilan munosabatda bo'lishga imkon yaratadi.

Hamid Sodiq shunday deydi "Kitob kesuvchidir, u qullik zanjirlarini kesadi". Kitob inson zotini har qanday yomonlikdan har qanday botqoqlikdan chiqara oluvchi kuch qudratiga ega hisoblanadi. Inson asli o'zidan qo'rqadi va o'zidagi xatolarni kimdir tomonidan ayb nuqsonlari yuziga aytilishidan nafratlanadi. Bir kishi kitoblar o'qiydigan ziyoli ayollarni xushlamasligini faylasuyf va o'ta aqlli bo'lishlarini takidladi shunda unga qarata: "Sen ziyoli ayollardan emas aksincha ziyoli ayol fosh qiladigan nuqsoningdan qo'rqasan" deya javob berishgan ekan.

Shayx Ahmad Kuftaru juda ko'p kitob o'qir qanday safarlari bo'lishga qaramay kitoblarini o'zi bilan olib yurar agar birovlar bilan uchrashuvi bo'lmasa ketma-ket o'n ikki soatlab kitob o'qir va bundan hech charchamas edi. U doim shunday der edi: "Peshqadam bo'lish tomon harakat qilayotgan aqlning kaliti kitob o'qishdir. Xalqlar va millatlarning uyg'onish siri kitobdir!"

**Xulosa:** Kop kitob o'qiyverilgani sari o'z tutgan o'rnidan, qoloq fikrlaridan, boshqalar fikriga tobeligidan hijolat bo'lib boraveradi. O'qish insonga fikriy jihatdan ozodlik baxsh etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan tadbiiq etilgan hamda amalga oshirilayotgan kitobxonlikka qaratilgan tadbirlar nafaqat yosh avlod balki kattalar ham kitob mutolasi va kitobxonlk madaniyatini yuksaltirish ustidan hozirgi zamon talablari darajasida kata va keng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan bo'lsa, boshqa tomondan qisqa vaqt mobaynida O'zbekistonimizning chinakam ma'noda kitobxonlar yurtiga aylanishga xizmat ko'rsatadi.

Ben Karson dunyoning eng mashhur bolalar jarrohi shunday degan edi: "Hayotimdagi ozgarish nuqtasi onam menga oynayi jahonni ko'rishni man qilib kitob o'qishga majburlagan kundan boshlangan." Darhaqiqat, tarbiya oiladan boshlangani kabi kitobxonlik ham o'z oilasi azolari yordamida yuzaga keladi. Bolada kitobxonlikning yaxshi rivojlanshida oila a'zolari kitobga nisbatan muhabati va o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Oilada kitobxonlikni rivojlantirish uchun kichik bo'lsa ham oilaviy kutubxona yaratish bola bilan birgalikda kitob o'qish va ularni farzandlari bilan birgalikda muhokama qilish orqali rivojlantiradi. Iqtibos keltirib o'tsak: Bir odam qo'shnisidan so'rabdi:

-Siz kitob o'qiysizmi?

-Yo'q, umuman o'qimayman. Buni yomon tarafi yo'q. Menga sezilmaydi, - debdi qo'shnisi. Shunda haligi odam:

-Lekin, bizga seziladi!

Inson o'z ruhiyati, olami, qalbi bilan qayta tanishmoqchi, qaytadan topishmoqchi bo'lsa, kitob mutolasiga va uning mohiyatini anglash uchun manfaatli shu bilan birgalikda foydli kitoblar, jurnallar o'qishimiz, bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar, ananalar ruhida tarbiyalashda undanda qudratliroq vosita yo'q ekanligini anlash darkor. Illo kitob insonning ma'naviy quyoshi va tafakkurining yuksak hazinasi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://kun.uz/uz>
2. <http://marifat.uz>
3. <https://fayllar.org>
4. <https://kompy.info>
5. <https://www.standart.uz>
6. Умаров А. Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараққиёт : [Монография] / А. Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, А.Кодирий номидаги Тошкент давлат маданият ин-ти. - Тошкент : Фан, 2004. - 190,[2] с. ; 20 см. - Библиогр.: с. 177-190 и подстроч. примеч.